

**O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING
JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI**

Jumaniyazova Lobar Sirojiddin qizi

Email: lobarjumaniyazova7@gmail.com

O'zDJTU 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi

O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar N3 kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning yangi mexanizmlari haqida ma'lumotlar berilgan. Milliy va xorijiy tajribalarda yoshlarga oid davlat siyosatining o'zaro o'xshash jihatlari tasvirlangan.

Kalit so'zlar: jamiyat, infratuzilma, strategik loyiham, siyosiy tamoyillar.

Ma'lumki, yoshlar bu jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanishadi. Kelajakdagi jamiyat taraqqiyoti, davlatning gullab-yashnashi bugungi kunda yoshlarning nima bilan mashg'ul bo'layotganligi bilan bog'liqligi ham barchamizga ma'lum.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yoshlar aholining eng katta qismini tashkil etadi va bu ularga nisbatan bo'lgan e'tiborning darajasi jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liqligini bildiradi. So'nggi yillar davomida yoshlarga oid davlat islohotlari natijasida yurtimizda yoshlarga har qanday sohada o'zini sinab ko'rishi uchun erkinlik beruvchi loyihamishlar ishlab chiqildi. Shu jumladan, 2020-yilda yoshlarning muammolariga yechim topish, ularning qiziqishlari, yangi loyihamalarini inobatga olib yordam berish va eng muhimi yoshlarga oid davlat siyosatini eng baland pog'onaga olib chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yangi tashkilot – Yoshlar ishlari agentligi -- tashkil etildi. 2016-yilda qabul qilingan « Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun esa yoshlarning har tomonlama yangi imkoniyatlardan oqilonqa ravishda foydalanishlariga imkoniyat eshiklarini ochmoqda. « Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yurtimizdagи yoshlarga oid davlat siyosatiga to'xtalib, « Eng muhimi, yoshlar bilan doimiy muloqot olib borish, ularning bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi barchamizning kundalik faoliyatimiz mezoniga aylanib bormoqda»,-- deb ta'kidlab o'tadi». [1] « Yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlardagi muammolarni hal etishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish maqsadida yaxlit infratuzilma yaratildi. Jumladan Oliy Majlis Senatida yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tashkil etildi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida esa Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya faoliyati yo'lga qo'yildi». [2] O'zbekistonda nafaqat davlat hududida yashayotgan yoshlarning huquq va erkinliklari, balki chet elda ta'llim olayotgan va mehnat qilayotgan o'zbek yoshlarining ham manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasining tashkil etilganligi yurtimizda yoshlarga bo'lgan e' tiborning yildan yilga yaxshilanib borayotganligidan darak beradi. Shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatida eng asosiy urg'uning ta'llim tizimiga berilayotganligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining « Yoshlar -- 2030 kun tartibi» dasturi bilan o'zaro aloqador. Aynan shu dastur tamoyillariga asoslangan holda yurtimizda Prezident ijod va ixtisoslashtirilgan

maktablari tashkil etildi. Oliy ta'lim tizimiga ham katta o'zgarishlar va yangi strategik loyihalar olib kirildi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun Prezident granti, shuningdek, bakalavriat bosqichidagi barcha talabalar uchun nomli davlat stipendiyalarining joriy etilganligini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Xorijiy mamlakatlarning ko'pchiligidagi davlatning yoshlari siyosati sohasidagi asosiy tamoyillari, vazifalari aks etgan hujjatlarning ishlab chiqish masalasiga katta e'tibor qaratilishini o'sha hujjatlarning murakkab tili va katta maqsadlar sari yo'naltirilganligidan bilib olishimiz mumkin. Misol uchun Ozarbayjon, Belarus, Finlandiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Janubiy Koreya kabi ko'pchilik davlatlarda Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunlarning mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yevropa davlatlarida yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishda o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategiya va dasturlarni ishlab chiqish tajribasidan foydalanishadi. Xususan, O'zbekistonga ham bu jarayonning asta-sekinlik bilan kirib kelayotganligi yaqin kelajakda jamiyatimiz yoshlari hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'lishidan dalolat beradi desak, yanglismagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodning bilimli, kasb-hunarli, hur fikrli bo'lib voyaga yetishi, munosib daromad topishi uchun barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. O'zbekistonning siyosiy jihatdan yoshlari bilan ishlash tajribasi noyob hisoblanib, xorijiy mamlakat ekspertlari va yoshlari tashkilotlarining e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. Mamlakatimiz yoshlari mamlakati sifatida xalqaro maydonga chiqmoqda. Bu imkoniyatlarni yuksak qadrlash va ulardan samarali foydalanish, mamlakatimiz taraqqiyotiga bilimimiz va mehnatimiz bilan hissa qo'shish barchamizning farzandlik burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulhayo Rahmonova.[2023] Xorijiy davlatlarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari. O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi veb-sayti.<https://asianforum.uz/uz/menu/mechanisms-for-implementing-state-youth-policy-in-foreign-countries>
2. Dilnozaxon Kattaxonova.[2021] Yoshlarga oid davlat siyosati : yangi imkoniyatlar va kompleks yondashuv. «Yangi O'zbekiston» rasmiy telegram kanali.<https://yuz.uz/uz/news/yoshlarga-oid-davlat-siyosati-yangi-imkoniyatlar-va-kompleks-yondashuv>
3. « Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni // Xalq so'zi. – 2016.-- 15-sentyabr. N182 (6617).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2018-yil 29-dekabr.